

**“TOHIR VA ZUHRA” DOSTONINING O‘ZBEK VA QRIM-TATAR VERSIYALARI
QIYOSIY TAHLI**

Mamatqulova Feruza Tohirovna

Falsafa bo‘yicha filologiya fanlari doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada “Tohir va Zuhra” dostonining o‘zbek va qrim-tatar versiyalari “Taimen Zore” qiyosiy tahlilga tortilgan. Ma’lumki, Tohir va Zuhra sof muhabbati haqidagi qadimiy epik sujet o‘zbek, turkman, ozarbayjon, tatar, boshqird, uyg‘ur, qrim-tatar, turk, qozoq va boshqa turkiy xalqlar orasida afsona, ertak, doston va qissa tarzida g‘oyat keng tarqalgan. Dostonning qrim-tatar versiyasi monografik jihatdan o‘rganilmagan.

Kalit so‘zlar: Doston, folklor, variant, versiya, qirim tatar, sof muhabbat.

Annotation: The ancient epic story about the pure love of Takhir and Zuhra is very common among the Uzbek, Turkmen, Azerbaijani, Tatar, Bashkir, Uighur, Crimean Tatar, Turkic, Kazakh and other Turkic peoples in the form of legends, tales, epics and stories. The Crimean Tatar version of the epic has not been studied monographically. The article compares the Uzbek and Crimean Tatar versions of the epic.

Key words: Epos, folklore, variant, version, Crimean Tatar, pure love.

Аннотация: Древний эпический сюжет о чистой любви Тахира и Зухры очень распространен среди узбекских, туркменских, азербайджанских, татарских, башкирских, уйгурских, крымско-татарских, тюркских, казахских и других тюркских народов в виде легенд, сказаний, былин и рассказы. Крымскотатарский вариант эпоса монографически не изучался. В статье сравниваются узбекский и крымскотатарский варианты эпоса.

Ключевые слова: Эпос, фольклор, вариант, версия, крымскотатарский, чистый любовь.

Ma’lumki, turkiy xalqlar dostonchilik ijodiyotining tarixiy-genetik ildizlari mushtarak epik zaminga borib taqalishi sababli ko‘pgina sujetlar milliy badiiy an’analar doirasida ishlanishi natijasida “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Tohir va Zuhra” singari dostonlarning o‘ziga xos versiyalari shakllangan. Atoqli turkolog olim V.V.Radlov “Tohir va Zuhra” dostonining qo‘lyozma va toshbosma nusxalari, shuningdek, xalq baxshilari repertuaridagi og‘zaki namunalari Qrim va Sibir tatarlari, O‘rta Osiyo va Yaqin Sharqda yashovchi turkiy xalqlar orasida g‘oyat keng tarqalganligini

alohida ta'kidlaganligi"[1] ham mazkur eposning ommalashish ko'lami naqadar katta hududni o'z ichiga olishidan dalolat beradi.

Tohir va Zuhraning sof muhabbati haqidagi bu qadimiy epik sujet o'zbek, turkman, ozarbayjon, tatar, boshqird, uyg'ur, qrim-tatar, turk, qozoq va boshqa turkiy xalqlar orasida afsona, ertak, doston va qissa tarzida g'oyat keng tarqalgan. Bu doston sujetining o'ziga xos epik talqinlari qoraqalpoq, gagauz, qo'miq, darg'in va boshqa xalqlar folklorida ham mavjudligi ma'lum.

“Tohir va Zuhra” dostoni turkiy xalqlar orasida keng tarqalganligi sababli uning milliy versiyalarini umumiy jihatlariga ko'ra quyidagi uch tipga bo'lib tasnif qilish mumkin:

- 1) “Tohir va Zuhra” dostonining qorluq-chigil versiyasi;
- 2) “Tohir va Zuhra” dostonining qipchoq versiyasi;
- 3) “Tohir va Zuhra” dostonining o'g'uz versiyasi.

“Tohir va Zuhra” dostoni qrim-tatar versiyasi – “Tairnen Zore”ning yozib olinishi va ilmiy o'rganilishi atoqli turkolog olim V.V.Radlov izlanishlari bilan bevosita bog'liqdir. Chunki V.M.Jirmunskiy va H.Zarifovlarning qayd etishlaricha, dostonning Qrim va Sibir tatarlari orasida tarqalgan versiyalari V.V.Radlov tomonidan yozib olingan[2].

1930-yilda mazkur dostonning qrim-tatar folklorida qayd etilgan “Dagar ve Zore” nomli ertak varianti A.Konchevkiy tomonidan yozib olingan va rus tiliga tarjima etilib, nashr qilingan [3]. Dostonning nisbatan tugal variantlaridan biri 1935-yilda Bekmambet Kaulmambetovdan yozib olingan bo'lib, bu namuna 1941-yilda chop ettirilgan [4]. Bu variantni ilk bor chop etirgan A.Reshidov “Masallar” (Ertaklar) to'plamiga yozgan so'zboshisida “Tairnen Zore” dostoni sujetining genezisi bilan bog'liq muhim bir masalaga alohida urg'u berganki, uning “K'ozukyurpech ve Bayansulu” dostonining asosiy mavzusi “Tairnen Zore”da bo'lgani kabi samimiy sevgi va baxtli hayot kechirish uchun kurashdan iboratdir. Bu dostonning sujeti “Tairnen Zore” kabidir, ammo “K'ozukyurpech ve Bayansulu” tatar xalqining eski turmush tarzi va urf-odatlarini to'la aks ettirganligi bilan ajralib turadi” [5].

Darhaqiqat, “Tohir va Zuhra” hamda “Qo'zi-Qo'rpech va Bayan-suluv” dostonlari sujetining motivlar tizimi va mazmunida o'xshash jihatlar juda ko'pligi keyinchalik boshqa folklorshunoslar tomonidan ham qayd etilganligi bu ikki epik asarni qiyosiy-tipologik tadqiq etish mazkur sujet genezisini oydinlashtirishda muhim ahamiyatga egaligidan dalolat beradi.

1973-yilda folklorshunos olim J.Bekirov Toshkent viloyatida istiqomat qilgan 92 yashar Fotima Ibragimovadan “Tairnen Zore” dostonining yana bir

variantini yozib olgan. Bekmambet Kaulmambetov varianti bilan bir qatorda,

mazkur variant ham 1980-yilda nashr etilgan "Dastanlar" to'plamiga kiritilgan[6].

Dostonning qrim-tatar versiyasi monografik jihatdan o'rganilmagan bo'lsa-da, bu versiya tahliliga doir qiziqarli ilmiy ishlar chop ettirilgan. Bular orasida folklorshunos J.Bekirovning "K'rymtatar xalk' ag'yz yaratydjylygy'y" nomli darsligining "Tair ve Zore" dastani" mavzusidagi fasli alohida ajralib turadi. Mazkur tadqiqotda dostonning qrim-tatar versiyasiga xos spetsifik xususiyatlar ochib berilgan, dostonning yozib olinishi va nashr etilishi tarixi yoritilgan, asarning mundarijasi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, asosiy personajlar tarkibi va motivlarining o'ziga xos talqini tahlil qilingan. Ayniqsa, Tair va Zore obrazlarining talqinida qrim-tatar folklori milliy an'analarning qay darajada aks etganligi mavjud variantlarning qiyosiy tahlili vositasida yoritilgan[7].

Qrim-tatar folklorida qayd etilgan "Tairnen Zore" dostonining Bekmambet Kaulmambetovdan yozib olingan variantining qisqacha mazmuni quyidagicha: Befarzand podsho bilan uning vaziri oilasida duo ijobati natijasida farzandlar dunyoga keladi. Podshoning qiziga Zore, vazirning o'g'liga Tair deb ism qo'yadilar. Tair yoshligida otasi o'lib, yetim qoladi va podsho qo'lida tarbiyalanadi. Tair bir kampirning suv idishini sindirib qo'yganidan keyin o'sha kampirning ig'vosi bilan podsho Tairni cho'pon qilib tayinlaydi. Shunda ham Tair Zore bilan uchrashaverganidan keyin podsho kampirning maslahati bilan uni Merdem shahriga ketishga majbur qiladi. Tair u yerda bir befarzand kampirga o'g'il bo'ladi. Zore Merdemdan kelgan Taz o'g'lon ismli savdogardan Tairga maktub yo'llaydi. Tair qaytib kelayotganida jodugar kampir Zorening soxta go'rini yasab, uni o'ldi deb Tairni ishontiradi. Tair o'zini yo'qotib qo'yadi. Zorening boshqa bir yigit bilan to'yi bo'layotganda qirq kun muhlat so'rab Gulchorboqqa keladi. Shunda daryoning narigi sohilida Tairni ko'radi, ammo u Zoreni yaxshi eslay olmaydi. Tair jon beradi, Zore ham o'ziga pichoq urib o'ldiradi. Bir cho'pon shu yerga yetib kelgan jodugar kampirning boshiga kaltak bilan urib o'ldiradi. Uning miyasi oshiq-ma'shuqlarning qabri o'rtasiga sochilib, undan tikanak ko'karadi va Tair bilan Zorening mozoridan unib chiqqan gullarni bir-biriga chirmashishga qo'ymaydi.

"Tairnen Zore" dostonining Fotima Ibragimovadan yozib olingan variantida esa bir musofir chol bergan olma tufayli podsho bilan vazirning ayollari homilador bo'lib, biri qiz, ikkinchisi o'g'il ko'radilar. Podshoning qiziga Zore, vazirning o'g'liga Tair deb nom beradilar. Maktabdan qaytayotganda

bir kampir Tairga Zore uning singlisi emas, balki atalgani ekanligini aytadi. Shu kampirning ig'vosi bilan podsho Tairni Merdim shahriga surgun qiladi. Kampir Zoreni Qarabatirga erga berish kerakligini aytadi. Taz o'g'lon orqali Zorening xatini olgan Tair yurtiga qaytib keladi. Tair bilan Zore birga ekanligini bilib qolgan jodugar kampir podshoga xabar beradi. Podsho Tairni o'ldirtiradi va uni dafn etadilar. Buni bilgan Zore ham Tairning mozoriga borib o'zini o'ldiradi. Qorabotir ham o'zini o'ldiradi, uning qoni oshiq-ma'shuqlarning qabrlari o'rtasiga oqqani uchun o'sha yerdan tikan ko'karadi.

Mazkur dostonning o'zbek va qrim-tatar versiyalarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, har ikki namunada ham voqealar tafsiloti podsho bilan vazirning befarzandligi tasviri bilan boshlanadi. Dostonning Rahmatulla Yusuf o'g'li ijrosidagi o'zbek variantida Qoraxon bilan Sarixonning befarzandligi ilohiy kuchlarning karomati bilan bog'lab tasvirlanadi. Ular ovga chiqib, tog'larda olqor-kiyik ovlab yurib, farzandlik bo'lishni niyat qiladilar va shunda ularning oldiga chopar kelib, ayollarining ko'zi yoriganligini xabar beradi. "Tohir va Zuhra" dostonining Zohir shoir Qo'chqor o'g'li repertuarida qayd etilgan o'zbek varianti bilan 1935-yilda Bekmambet Kaulmambetov va 1973-yilda Fotima Ibragimovadan yozib olingan "Tairnen Zore" deb atalgan qrim-tatar versiyasi epik qahramonning g'ayritabiiy tug'ilishi motivi g'aroyib chol bergan sehri "olma"dan homila hosil bo'lishi bilan bog'liq holda talqin qilinishi jihatidan mushtaraklik kasb etadi.

Rahmatulla Yusuf o'g'li talqinicha, Tohir soqqa o'ynab yurganida soqqasi bir kampirning charxiga tegib sindiradi. Shunda kampir "Oshiq o'ynaguncha dildoringdan xabar olmaysanmi?" deydi. Tohir dildori kim ekanligini so'raganida kampir unga o'ziga atashtirilgan qiz kim ekanligini bilish sirini o'rgatadi. Kampirning maslahati bilan ish ko'rgan Tohir onasining oldiga boradi va qovurmoch bahonasida onasining qo'lini issiq qovurmochga bosib turib, o'ziga unashtirilgan qiz Zuhra ekanligini bilib oladi. Dostonning qrim-tatar versiyasida esa bu motiv uchramaydi. Kampir obrazi esa asosiy personajlarga qarama-qarshi turuvchi antagonist sifatida talqin qilingan. Qrim-tatar folklorida qayd etilgan har ikki variantda ham "k'urk'a", ya'ni kampir obrazining asosiy epik funksiyasi Tohir bilan Zuhrani bir-biridan ajratish orqali oshiqlarning visolga yetishishiga qarshilik ko'rsatishdan iboratdir.

"Tairnen Zore" dostonining Bekmambet Kaulmambetov variantida esa "k'urk'a" obrazi Tohir bilan Zuhraning muhabbatiga to'sqinlik qilgan asosiy kuch timsoli sifatida tasvirlangan. Dostonning Fotima Ibragimovadan yozib olingan variantida K'arabatır (Qorabotir) obrazi mavjud bo'lgani holda bu namunada uning funksiyasini ham "k'urk'a" bajaradi. Maktabdan qaytib

kelayotgan Tair olma otib “k'urtk'a”ning suv idishini sindirib qo'yganidan keyin u podshoning oldiga borib “Siz qizingizni erga berish uchun vazir o'g'lidan boshqa podsho bolasini topmadingizmi? Tairni qo'yboqar qiling, uning ham o'ziga loysig'i topilib qolar”, – deb maslahat beradi. Podsho ham uning gapiga kirib, Tairni qo'y boqishga yuboradi[8]. Shundan keyin ham Tair bilan Zore uchrashib, qo'shiq aytishib yurishganini bilgach, “k'urtk'a” Zorening onasining sutiga bitta tuxumni qo'shib qovurib Tairga yedirish orqali ularni aka-singil qilmoqchi va shu yo'l bilan ularni ayirmoqchi bo'ladi. Ammo Tair bu taomni yemaydi. Hech iloj topolmagandan keyin podshoning huzuriga borib, Tairni Merdem shahriga jo'natib yuborishga ko'ndiradi. Podshoning amri bilan Tair o'z yurtidan jo'nab ketadi. Oradan ancha vaqt o'tgach, Taz savdogardan Zore yuborgan oltin olmani olib, yorining daragini eshitgan Tair yurtiga qaytib kelayotganida ham “k'urtk'a” uning oldiga chiqadi va Zorening soxta qabrini yasattirib, hiyla-nayrang bilan Tairni qaytarishga urinadi. Dostonning oxirida Tair bilan Zore o'lgach, “k'urtk'a” ham ular ko'milgan yerga boradi va o'sha joy yaqinida qo'y boqib yurgan bir cho'ponga o'zini o'ldirishni buyuradi. Cho'pon “Sen ularning bu dunyoda qo'shilishiga yo'l qo'ymading, endi u dunyoda ham tinch qo'ymoqchi emasmisan?!” – deb “k'urtk'a”ning boshiga bir kaltak uradi va kampirning miya qatig'i sachrab Tair bilan Zorening qabrlari o'rtasiga tushadi. Keyin Tair bilan Zorening qabridan anvoyi gullar o'sib chiqsa, kampirning miya qatig'i to'kilgan yerdan tikanak ko'karib, gullarning yaproqlariga sanchilib, ularning bir-biriga chirmashishiga yo'l qo'ymaydi[9].

Dostonning o'zbek versiyasida esa oshiq-ma'shuqlar qabri o'rtasiga ularning raqibi – Qorabotirning jasadi ko'miladi. Rahmatulla Yusuf o'g'li talqinicha, “Qorabotir qattiq rashk qilib, johil, axmoq, bachchag'ar, or-nomusga chiday olmay, Zuhraning qabri qoshiga borib, o'z ko'ksiga o'zi xanjar bilan bir urib, halok bo'ldi. Qorabotirning o'zidan ham uch hissa ahmoq singlisi bor edi. U “Mening akam qanday odam, jonday odam. Zuhra bo'lsa qiyomatda mening akamning yori bo'lishi kerak”, deb Qorabotirni Tohir bilan Zuhraning o'rtasiga ko'mdirdi... Qorabotirning qabridan oqboosh ko'karib chiqib, chaqir tikan bo'lib ketdi. Tohirning qabridan noparmon, Zuhraning qabridan qizil pechak gul ko'karib, noparmon pechak gul bilan qizil pechak gul bir-biriga chirmashib ketdi. Oqboosh bo'lsa o'rtada qisilib, quvrab qoldi”[10].

Ko'rinadiki, dostonning qrim-tatar versiyasida kampirning qoni to'kilgan yerdan ko'karib chiqqan tikanak Tair bilan Zorening qabridan o'sib chiqqan gullarning chirmashishiga yo'l qo'ymagan bo'lsa, o'zbek versiyasining Rahmatulla Yusuf o'g'li talqinidagi variantida oshiqlar mozori o'rtasiga

ko'milgan Qorabotirning qabridan unib chiqqan oqboosh quvrab-qurib qoladi va bu ikki oshiq-ma'shuqqa to'siq bo'lolmaydi. Dostonning Zohir shoir Qo'chqor o'g'li variantida esa Tohir bilan Zuhra murod-maqсадlariga yetadilar.

O'zbek versiyasidan farqli o'laroq, dostonning qrim-tatar versiyasida Tohirning sandiqqa solib suvga oqizilishi motivi ham mavjud emas. Jodugar "k'urtk'a"ning ig'vosi va nayranglariga uchgan podsho Tairni Merdem shahriga ketishga majbur qiladi va oshiq u yerga o'zi ketadi. Zero, epik qahramonning sandiqqa solib daryoga tashlanishi motivi dostonning ko'plab versiyalarida mavjud bo'lib, mazkur epik sujetning asosiy motivlaridan biri hisoblanadi. Bu motivning qrim-tatar folkloridagi "Tairnen Zore" dostoni variantlarida uchramasligi epik sujetning bu milliy talqini kuchli transformatsiyaga uchraganligidan dalolat beradi.

"Tairnen Zore" dostonining Fotima Ibragimovadan yozib olingan varianti bilan Rahmatulla Yusuf o'g'li repertuaridagi "Tohir va Zuhra" dostoni matnini qiyosiy tahlil qilganimizda she'riy parchalardagi muayyan o'xshashliklar borligi ma'lum bo'ldi. Garchi dostonning o'zbek versiyasida hajman kattaligi va she'riy parchalardagi bandlar miqdorining ko'pligi bilan qrim-tatar versiyasidan farqlanib tursa-da, ayrim she'riy bandlarda epik formulaga aylangan an'anaviy misralarning qo'llanilganligi versiyalararo mushtaraklikni keltirib chiqargan.

Qiyoslanayotgan namunalarning har ikkisinining she'riy qismi xalq eposining epik she'r tuzilishi an'analariiga mos ravishda 7 bo'g'inli misralardan tarkib topgan. "Tohir va Zuhra" dostonining Rahmatulla Yusuf o'g'li variantida qahramonning sandiqqa solib daryoga tashlanishi lavhasi tasvirida baxshi "suv" poetik obrazini qo'llash orqali personajlar ruhiy holati va kechinmalarini badiiy ifodalaydi. Bunda har bir bandning "suv kelar", "suv o'tar", "suv borar" kabi so'z birikmalari bilan boshlangan dastlabki misrasida juft so'zlarning qo'llanilishi baxshi badiiy mahoratining o'ziga xosligini ko'rsatuvchi poetik usul sifatida ko'zga tashlanadi. Ayni poetik usulni sandiqda oqib borayotgan Tohirning ketidan yugurib borayotgan Zuhra tilidan aytilgan:

Suv kelar gumbur-gumbur,
Suyganim qizil guldir,
Sevganimga bermasa,
O'lganim shu bugundir.

Suv o'tar yelib-elib,

Yetolmasam netayin,
Oramiz uzoqlashar,
Tutolmasam netayin[11],

– kabi she'riy parchalarda, shuningdek, daryoda oqib ketayotgan Tohirning ichki kechinmalari aks etgan:

Suv kelar taram-taram,
Injuday tinib biram,
Zuhraoyning sochiday,

Gajaklari buram-buram[12]. – kabi misralarda ham ko'rish mumkin.

“Tairnen Zore” dostonining Fotima Ibragimovadan yozib olingan variantida Zorening maktubini Merdum shahriga olib kelgan Taz o'g'lon Tair bilan uchrashgan paytda undan kimligini so'rab murojaat qilganida “suv” poetik obrazi bilan aloqador mazkur badiiy formula quyidagicha qo'llanilgan:

Suv ak'ar тынык'-тынык',
Sevgiden yuregin' yanыk',
Chek tellenin saзыn',
Syoyle endi bize adын[13].

Shuningdek, dostonning mazkur namunasidagi she'riy parchalarning birinchi misrasida “tilim-tilim”, “dane-dane”, “сыра-сыра”, “tyum-tyum” singari takror so'zlar qo'llanilishi holati kuzatiladiki, bu usul “Tairnen Zore” dostonining Bekmambet Kaulmambetov variantida uchramaydi. Bu esa “Tairnen Zore” dostonining Fotima Ibragimovadan yozib olingan varianti Toshkent viloyatida istiqomat qiluvchi qrim-tatarlar orasida ommalashganligi hamda uning ijrochisi mazkur asarning o'zbek versiyasidan ma'lum darajada xabardor bo'lganligi bilan izohlanishi mumkin.

“Tohir va Zuhra” hamda “Tairnen Zore” dostonlarining obrazlar tizimida ham farqli xususiyatlar mavjud. Dostonning o'zbek versiyasida epik qahramonlarning otalari – podsho bilan vazir Qoraxon hamda Sarixon deb atalgani holda qrim-tatar versiyasida ularning ismi aytilmaydi. O'zbek dostonidagi mulla Haqqul, Rustamxon podsho, Gulhadicha, Tohirning xolasi obrazlari mazkur asarning qrim-tatar folklorida ommalashgan versiyasida uchramaydi. “Tairnen Zore” dostoni esa Zorening oltin soqqasi bilan maktubini Tohirga olib borib bergan Taz og'lan obrazi o'zbekcha versiyada qayd etilmaganligi bilan o'ziga xoslikka ega. Dostonning ikki versiyasini qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatdiki, dostonning qrim-tatar versiyasi Fotima Ibragimova va Bekmambet Kaulmambetovdan yozib olingan ikki variantni o'z ichiga oladi. Bu versiya epik qahramonning g'ayritabiiy tug'ilishi motivi g'aroyib chol bergan sehrli olma bilan bog'lik holda talqin qilinishi jihatidan

o'zbek dostonlariga o'xshab ketadi. Ammo o'zbek xalq dostonlaridagi Tohirning charxi singan kampirning so'zi orqali Zuhraga unashtirilganligidan xabar topishi motivi qrim-tatar versiyasida mavjud emas. Bu versiyada "k'urtk'a", ya'ni kampir obrazi asosiy qahramonlarga antogonistik pozitsiyada turib harakat qiladi. Dostonning ko'plab milliy versiyalarida mavjud bo'lgan Tohirning sandiqqa solib suvga oqizilishi motivining qrim-tatar folkloridagi "Tairnen Zore" dostoni variantlarida uchramasligi epik sujet transformatsiyaga uchraganligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Радлов В.В. Образцы народной литературы северных тюркских племен. Т. ИВ. Наречия барабинцев, тарских, тобольских и тюменских татар. – Спб., 1872. – С.340-355.
2. Жирмунский В.В., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – М., 1948. – С.294.
3. Кончевский А. Сказки, легенды и предания Крыма. – М.-Л., 1930. – С.59-61.
4. Масаллар.Т.1. – Симферополь, 1941. – Б.356-366.
5. Решидов К. Кърымтатар масаллары // Масаллар.Т.1. – Симферополь, 1941. – Б.22
6. Дестанлар. Топлаған ве тертип эткен Джафар Бекиров. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. (1-вариант: Б.74-86; 2-вариант: Б.87-100.
7. Бекиров Дж. Кърымтатар халкъ агъыз яратыджылыгыъы. – Ташкент: Ўқитувчи, 1988. – Б.52-64.